

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILINI ÓRGANISHDA IJTIMOIY MULOQOTNING ÓRNI

Matqosimova Mohira Erkinbek qizi

ADCHTI, Nemis tili nazariyasi va amaliyoti Kafedrasi o'qituvchisi

Mohiragina@gmail.com

Jo'rayeva Gulzebo

Andijon davlat chet tillari instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilini o'rganish jarayoni paytida ijtimoiy muloqotning o'rnini tahlil qilinadi. Til o'rganishning tabiiy va samarali yo'llaridan biri sifatida ijtimoiy muloqot, ayniqsa, rolly o'yinlar, guruhli mashg'ulotlar va jonli suhbatlar orqali bolaning til kompetensiyasini shakllantirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada amaliy tavsiyalar va metodik yondashuv va usullar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, chet tili, ijtimoiy muloqot, bola rivojlanishi, til o'rganish, o'yin orqali o'rganish, pedagogik metodika, o'qituvchining o'rnini

Аннотация: В данной статье анализируется роль социального общения в процессе изучения иностранного языка детьми дошкольного возраста. Социальное взаимодействие представлено как один из естественных и эффективных способов изучения языка, особенно через ролевые игры, групповые занятия и живое общение. Также в статье представлены практические рекомендации, методические подходы и методы.

Ключевые слова: дошкольное образование, иностранный язык, социальное общение, развитие ребёнка, изучение языка, обучение через игру, педагогическая методика, роль учителя

Abstract: This article analyzes the role of social interaction in the process of learning a foreign language among preschool children. Social communication is highlighted as one of the natural and effective ways of language acquisition, especially through role-playing, group activities, and live conversations. The article also presents practical recommendations, methodological approaches, and techniques.

Keywords: preschool education, foreign language, social interaction, child development, language learning, learning through play, pedagogical methodology, teacher's role

Kirish: Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarini o'rganish yosh bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil bo'lib o'rin egallamoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolalar uchun til o'rganish faqat bilim emas, balki ijtimoiy tajriba sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, ijtimoiy muloqot – bola tilni o'zlashtirishida asosiy vositalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida chet tilini o'rgatishda ijtimoiy muloqotning, xususan rolli o'yinlar, guruhli faoliyatlar va jonli suhbatlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, samarali metodik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar orqali til o'rganish jarayonini yanada sifatli tashkil etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Bolalarni faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklanmagan holatda, ularga ijtimoiy muhit ham yaratib berishlik lozimdir.

Hozirgi kunda globallashuv va ta'lim sohasidagi islohotlar maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tillariga erta jalb etishni taqozo qilmoqda. Chet tilini erta bosqichda o'rganish nafaqat bolalarning intellektual salohiyatini oshiradi, balki ularning madaniy saviyasini, dunyoqarashini ham kengaytiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tilni tabiiy muhitda, o'yin va muloqot orqali o'rganishga moyil bo'lib, bu jarayonda ijtimoiy muloqot muhim o'rin tutaditutadi. Bu esa bularning oson va sifatli ilm olishiga juda ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, rolli o'yinlar, guruhli mashg'ulotlar va jonli suhbatlar orqali bolalar chet tilini tez va samarali o'zlashtiradi.

Til o'rganish jarayoni, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muloqot asosida tashkil etilganda yanada foydaliroq bo'ladi. Chunki bu yoshdagi bolalar

suhbatlashish jarayonida yangi soʻz va iboralarni tabiiy tarzda eslab qoladilar va ularni muloqot jarayonida qoʻllashga harakat qiladilar. Ular bolalarda nafaqat til koʻnikmalarini, balki ijtimoiy faollik, muloqot madaniyati va jamoada ishlash qobiliyatini ham rivojlantirib beradi. Shuningdek, oʻyin orqali oʻrganish bolaning tilga boʻlgan qiziqishini kuchaytiradi va oʻquv jarayonini tabiiy, majburlovsiz shaklda olib borishga yordam beradi. Bu esa pedagogdan aniq metodik yondashuv, moslashtirilgan materiallar va har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda darsni tashkil etishni talab qiladi.

Ismailova N. (2020) oʻzining “Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini oʻrgatishda kommunikativ yondashuvning oʻrni” nomli maqolasida taʼkidlaydi: “Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun til oʻrganish jarayoni ularning yoshiga mos boʻlgan interaktiv metodlar asosida tashkil etilishi kerak. Ayniqsa, rolli oʻyinlar, guruhviy mashgʻulotlar va bolalarni faol muloqotga jalb etuvchi topshiriqlar til oʻzlashtirishda muhim rol oʻynaydi. Bunday uslublar bolaning nafaqat lugʻat boyligini kengaytiradi, balki ularni nutqiy faollikka ham undaydi.” Olimaning fikriga koʻra, bola chet tilini sunʼiy muhitda emas, balki real ijtimoiy vaziyatlarga yaqin faoliyatlar orqali oʻzlashtirganida samaradorlik oshadi. Ushbu fikrlar shuni koʻrsatadiki, til oʻrgatish jarayoni faqat bilim berishga emas, balki bolalarda muloqotga tayyorlik, oʻz fikrini ifoda qilish va boshqalar bilan erkin aloqa oʻrnatishga qaratilgan boʻlishi lozim. Shunday ekan, kommunikativ yondashuv va oʻyin asosli metodlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Cameron (2001) oʻzining *Teaching Languages to Young Learners* nomli ilmiy ishida shunday taʼkidlaydi: “Young learners are enthusiastic and responsive, and they benefit greatly from language learning that includes games, songs, and interactive tasks.” Unga koʻra, yosh bolalar faol, his-tuygʻularga boy va oʻyin orqali oʻrgatilgan til materiallarini chuqurroq qabul qiladi. Cameron bolalarga chet tilini oʻrgatishda oʻyinlar, qoʻshiqlar va muloqotga asoslangan topshiriqlarni asosiy metod sifatida qoʻllashni tavsiya etadi. U interaktiv uslublar bolaning eʼtiborini ushlab turishini, til oʻzlashtirish jarayonini esa zavqli va tabiiy holga aylantirishini qayd etadi. Ushbu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlariga toʻliq mos keladi, chunki ular sezgi, taqlid va harakat orqali oʻrganishga moyil boʻladi. Shuningdek, bu metodlar orqali bolalar nafaqat yangi soʻzlarni oʻzlashtiradi, balki tilni ijtimoiy

kontekstda ishlatishga ham odatlanadi. Pedagogik metodika bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ta'lim berish usullarini ishlab chiqadi va ularni amaliyotga joriy etishni o'rgatadi. Husainova M. (2018) ta'kidlashicha: "Maktabgacha ta'limda foydalaniladigan metodlar bolaning rivojlanish darajasiga, uning qiziqishiga va faol ishtirokiga moslashtirilgan bo'lishi zarur. O'yin asosidagi yondashuv, vizual materiallar va interaktiv faoliyatlar eng samarali pedagogik metodlardan hisoblanadi." Pedagogik metodika nafaqat nima o'qitishni, balki qanday o'qitish kerakligini aniqlab beradi. Ayniqsa chet tili o'qitishda bu metodik yondashuvlar bolalarda tilga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar chet tilini o'rganishda o'qituvchining roli nihoyatda muhimdir. O'qituvchi nafaqat til bilimlarini yetkazib beruvchi, balki bolaning tilga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi, muloqot muhitini yaratib, ularni faol qatnashishga rag'batlantiruvchi asosiy shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilar o'yin, drama va interaktiv faoliyatlar orqali tilni o'zlashtirishga moyil bo'lganligi sababli, o'qituvchi dars jarayonida ushbu uslublarni samarali qo'llashi zarur. Uning vazifalaridan biri – har bir bolaning individual imkoniyatlari vaqobiliyatlarini hisobga olgan holda dars mazmunini differentsial yondoshuv asosida tashkil etishdir. Shu tarzda, o'qituvchi nafaqat grammatik va leksik bilimlarni berish, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashni, muloqotda erkin ifoda etishni rivojlantiradi. Shuningdek, o'qituvchi darsda vizual, kinestetik va auditiv materiallardan foydalanish orqali bolaning ko'p qirrali o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi va ularning diqqat-e'tiborini ushlab turish hamda kreativ fikrlashini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Umuman olganda, chet tilini o'rgatish jarayonida o'qituvchi bolalarda nafaqat til ko'nikmalarini, balki ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan kompleks muhitni yaratishi kerak. Shu yo'l bilan, til o'rganish jarayoni nafaqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki amaliy va interaktiv faoliyatlar orqali chuqurroq va samaraliroq shakllanib boradi.

Xulosa: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun chet tilini o'rganish bu faqat yangi so'zlarni yodlashgina emas, balki ular bilan suhbat qilish, o'z fikrini ifodalash va ijtimoiy tajriba orttirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonda ijtimoiy muloqot vositalari

– o‘yin, suhbat, rolli mashg‘ulotlar orqali bola tabiiy va faol muhitda tilni yaxshiroq egalashga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, o‘qituvchining bu jarayondagi ishtiroki hal qiluvchi rol o‘ynaydi: u bolaning ichki imkoniyatlarini ochib beruvchi, til o‘rganishga yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi yetakchi hisoblanadi. Til o‘rgatish jarayonini mazmunli, qiziqarli va bolaga mos shaklda tashkil etgan pedagoggina samarali natijaga erisha oladi. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tizimida chet tilini o‘rgatishda metodik yondashuvlar bilan birga, o‘qituvchining shaxsiy yondashuvi va ijtimoiy muhit yaratish qobiliyati ham muhim omil sifatida qaralishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husainova, M. (2018). Pedagogik texnologiyalar va metodika asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Ellis, R. (2003). Task-based language learning and teaching. Oxford University Press.
3. Ismailova, N. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o‘rgatishda kommunikativ yondashuvning o‘rni. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar ilmiy-metodik jurnali, 2(4), 45–50.
3. Cameron, L. (2001). Teaching languages to young learners. Cambridge University Press.